

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT QONUNCHILIGIDAGI  
VOYAGA YETMAGANLAR JINSIY DAXSLIZLIGIGA QARATILGAN  
JINOYATLAR UCHUN JAVOBGARLIK**

**Alijonova Nigora Toxirjon qizi**

Toshkent davlat yuridik universiteti, Jinoyat qonunchiligini qo'llash nazariyasi va  
amaliyoti yo'nalishi magistranti

***Annotatsiya:** ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining jinoyat qonunchiligida voyaga yetmaganlarning jinsiy daxlsizligini ta'minlash masalalari zamonaviy islohotlar prizmasi orqali tahlil qilinadi. Xususan, 2023-yil 11-apreldagi O'RQ-829-sonli hamda 2024-yil 14-noyabrdagi "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi qonunlar bilan kiritilgan o'zgartirishlarning mazmun-mohiyati va ularning amaliy ahamiyati yoritilgan. Maqolada 2023-2025-yillardagi sud amaliyoti statistikasi tahlil qilinib, voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etiladigan jinsiy jinoyatlarning dinamikasi ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqot davomida muallif tomonidan Jinoyat kodeksining 118, 119, 128 va 129-moddalaridagi aybdorning jabrlanuvchi yoshini bilishi lozimligi haqidagi talabning bekor qilinishi kabi muhim o'zgarishlar ilmiy-huquqiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, 2026-yil 3-martdagi PF-33-sonli Prezident Farmonida belgilangan ustuvor vazifalar asosida kiberzo'ravonlik, stalking va onlayn gruming kabi yangi turdagi tahdidlar uchun jinoiy javobgarlikni belgilash zaruriyati xalqaro tajriba (Istanbul konvensiyasi, Kanada va Yevropa Ittifoqi qonunchiligi) bilan qiyosiy o'rganilgan. Maqola yakunida milliy qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan kompleks taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

***Kalit so'zlar:** voyaga yetmaganlar, jinsiy daxlsizlik, jinoiy javobgarlik, nomusga tegish, jinsiy zo'ravonlik, stalking, kiberzo'ravonlik, onlayn gruming,*

*Istanbul konvensiyasi, jabrlanuvchining yoshi, Jinoyat kodeksi, huquqiy himoya, bolalar huquqlari, latent jinoyatchilik, raqamli tahdidlar.*

## **Kirish**

O‘zbekiston Respublikasida inson huquqlari, xususan, bolalar va ayollarning jinsiy daxlsizligini ta‘minlash davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bugungi kunda global transformatsiya jarayonlari va axborot texnologiyalarining rivojlanishi voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etiladigan jinoyatlarning yangi, latent shakllari paydo bo‘lishiga zamin yaratmoqda. Shu sababli, milliy jinoyat qonunchiligini zamon talablariga moslashtirish, jazoning muqarrarlighi prinsipini kuchaytirish va bolalarni zo‘ravonlikning har qanday ko‘rinishidan himoya qilish tizimini konseptual jihatdan qayta ko‘rib chiqish kechiktirib bo‘lmas zaruratdir. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 11-apreldagi “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni, 2024-yil 14-noyabrdagi “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilinib, ushbu qonunlar bilan qonunchilikka, xususan, Jinoyat kodeksi, Ma‘muriy javobgarlik kodekslariga bir qator o‘zgartirishlar kiritildi, bolalarni zo‘ravonliklardan himoya qilish maqsadida tegishli chora-tadbirlar amalga oshirish takomillashtirildi.

Statistik ma‘lumotlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2023-yilning atigi 6 oyida 16 yoshga to‘lmaganlarga nisbatan jinsiy tajovuz bilan bog‘liq jinoyatlar

uchun 257 nafar shaxsga sud hukmi o'qilgan. Ulardan 15 nafar jinoyatchi 14 yoshga to'lmagan shaxsning nomusiga tegish; 44 nafar jinoyatchi 14 yoshga to'lmagan shaxsga nisbatan zo'rlik ishlatib, qo'rqitib yoki jabrlanuvchining o'jizligidan foydalanib, jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish; 163 nafar jinoyatchi 16 yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish; 35 nafar jinoyatchi 16 yoshga to'lmagan shaxsga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar qilish jinoyatlarini sodir etgani uchun jazolangan [1]. Ushbu raqamlar voyaga yetmaganlarning jinsiy daxlsizligi va huquqlari himoyasi bugungi kunda naqadar dolzarblik kasb etayotganini yana bir bora namoyish etadi.

Binobarin, jinoyatchilik dinamikasining bu kabi ko'rinishi qonun chiqaruvchidan nafaqat mavjud normalarni qat'iylashtirishni, balki jinoiy kvalifikatsiya jarayonidagi huquqiy "bo'shliq"larni bartaraf etishni ham talab etadi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, O'zbekistonda ayollar va voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etilgan zo'ravonlik va jinsiy zo'ravonlikka qarshi kurashish mexanizmlarini takomillashtirish va shu orqali amaliyotdagi muammolarga barham berish tadqiqot mavzusining haqiqatda dolzarb ekanligini anglatadi.

### **Asosiy qism**

"Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi Qonunga ko'ra bolaning hayotiga, sog'lig'iga, jinsiy daxlsizligiga, sha'niga, qadr-qimmatiga hamda qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari va erkinliklariga tajovuz qiladigan, jismoniy yoki ruhiy azob yetkazayotgan yoki yetkazishi mumkin bo'lgan hamda asosiy ehtiyojlariga zid bo'lgan, shu jumladan telekommunikatsiya tarmoqlaridan va Internet butunjahon axborot tarmog'idan

foydalangan holda amalga oshiriladigan, qasddan sodir etiladigan harakat (harakatsizlik) bolalarga nisbatan zo'rvonlik deb e'tirof etilgan. Shunisi e'tiborliki, yangi tahrirdagi qonun jinsiy zo'rvonlik tushunchasini yanada kengaytirib, unga nafaqat jismoniy harakatlarni, balki bolani pornografik xususiyatga ega harakatlar ijrochisi sifatida jalb etish, shahvoniy shilqimlik qilish hamda onlayn muhitdagi tajovuzlarni ham kiritdi [2].

Huquqiy nuqtai nazardan tahlil qiladigan bo'lsak, voyaga yetmaganlarning jinsiy daxlsizligiga qarshi qaratilgan jinoyatlarga esa nomusga tegish (Jinoyat kodeksi 118-moddasi 3-qism "a" bandi va 4-qism), jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayritabiiy usulda qondirish (Jinoyat kodeksi 119-moddasi 3-qism "a" bandi va 4-qism), o'n olti yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish (Jinoyat kodeksi 128-moddasi), o'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxs bilan moddiy qimmatliklar berish yoxud mulkiy yoki boshqacha tarzdagi manfaatdor etish orqali jinsiy aloqa qilish (Jinoyat kodeksi 128<sup>1</sup>-moddasi), o'n olti yoshga to'lmagan shaxsga uyatsiz-buziq harakatlar qilish (Jinoyat kodeksi 129-moddasi) kabilar kiradi [4].

Nomusga tegish yosh bola, voyaga yetmagan yoki ojiz ahvolda qolgan ayolga nisbatan sodir etilgan bo'lsa, jinoyatning bevosita obyekti jinsiy daxlsizlik va jinoyatning qo'shimcha obyekti sifatida voyaga yetmagan shaxslarning axloqiy tarbiyalanishi va normal jismoniy o'sishini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar namoyon bo'ladi. Professor M.X. Rustambayev va S.S. Niyozovalar ta'kidlaganidek, bunday jinoyatlar jabrlanuvchining nafaqat jismoniy sog'lig'iga, balki uning kelgusidagi ruhiy-ijtimoiy shakllanishiga tuzatib bo'lmas zarar yetkazadi [3. B. 116]. Nomusga tegish (JK 118-modda) va jinsiy ehtiyojni zo'rlik

ishlatib g'ayritabiiy usulda qondirish (JK 119-modda) jinoyatining mazkur kvalifikatsiyaga oid turida nazarda tutilgan o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxsga nisbatan ushbu qilmishlarni sodir etish jabrlanuvchilarning axloqiy shakllanishi, jinsiy normal rivojlanishi, ularning jinsiy daxlsizligi va jinsiy erkinligiga tajovuz qiladi.

Bizning fikrimizcha, qonunchilikdagi asosiy o'zgarishlardan biri — bu subyektiv tomondan aybdorning jabrlanuvchi yoshini bilishi lozimligi haqidagi shartning olib tashlanishidir. Ilgari amaliyotda aybdorlar “men uning voyaga yetmaganligini bilmagan edim, u o'z yoshidan kattaroq ko'rinardi” degan vajlar bilan og'ir javobgarlikdan qutulib qolishga urinishardi. Endilikda ushbu moddalarga kiritilgan o'zgartirishlar natijasida jabrlanuvchi shaxs o'n sakkiz yoshga to'lgan yoki to'lmagan bo'lgan taqdirda uning yoshi aybdorga ayon bo'lishlik sharti olib tashlandi [4]. Shu nuqtai nazardan, o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxsga nisbatan nomusga tegish (JK 118-modda) va jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayritabiiy usulda qondirish (JK 119-modda) jinoyati uchun jinoiy javobgarlikda aybdorning jabrlanuvchi yoshi to'g'risida bilishi yoki bilmasligi ahamiyat kasb etmaydi [3. B. 124].

Bu holat qat'iy javobgarlik tamoyiliga yaqinlashib, bolaning manfaatlarini har qanday subyektiv vajlardan ustun qo'yadi. Oldingi tahrirdagi Jinoyat kodeksi normalarining ifodalanishi jinoyatchilarga voyaga yetmaganlarning jinsiy erkinligi va daxlsizligini buzish bilan bog'liq hollarda jabrlanuvchining yoshini bilmaganliklarini bahona qilib, og'irroq jazodan qutulib qolishlariga imkon berardi. Natijada jinoyatchilar voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy jinoyatlar

uchun javobgarlikka tortilmasdan, go'yoki jabrlanuvchi voyaga yetgan shaxs bo'lgandek sudlanishlari mumkin edi.

O'n olti yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish (JK 128-moddasi) ijtimoiy axloqqa tajovuz qiluvchi jinoyatlarga kirish bilan bir qatorda yoshlarning normal tarbiyalanishiga tajovuz qiluvchi jinoyatlar sirasiga ham kiradi. O'n olti yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish deganda, shaxsning o'n olti yoshga to'lmagan shaxs bilan zo'rlik ishlatmay, qo'rqitmay yoki uning ojizlik holatidan foydalanmasdan ixtiyoriy ravishda u bilan jinsiy aloqa qilish yoki jinsiy ehtiyojini g'ayritabiiy usulda qondirish tushuniladi. Ushbu modda bo'yicha ham jabrlanuvchining o'n olti yoshga to'lmaganini bilishlik zarurati belgilanmaganligi jinsiy jinoyatchilarga hukm chiqarishda yengillashtiruvchi holatlarni cheklaydi.

Shu bilan birga, ilmiy diskussiyalar doirasida ta'kidlash lozimki, zamonaviy texnologiyalar davrida jinsiy tajovuz tushunchasi jismoniy aloqa doirasidan chiqib ketmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2026-yilning 3-martida qabul qilingan "Ayollar va bolalar huquqlarining himoyasini kuchaytirish hamda ularga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlarining oldini olish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy-huquqiy choralar to'g'risida"gi PF-33-son Farmonida bu masalaga alohida e'tibor qaratildi [5]. Unda shaxsni uning erkiga qarshi ravishda noqonuniy ta'qib qilish (stalking), Internet yoki ijtimoiy tarmoqlarda sodir etiladigan zo'ravonlik (kiberzo'ravonlik), voyaga yetmagan shaxslardan jinsiy foydalanish hamda shu maqsadda Internet orqali voyaga yetmagan shaxsning ishonchini qozonish (onlayn gruming) uchun qonunchilikda javobgarlik belgilash zarurligi ko'rsatib o'tildi [6. B. 318].

Xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, Stalkingni jinoiy javobgarlik sifatida mustahkamlash tendensiyasi xalqaro miqyosda keng tus olmoqda. Istanbul konvensiyasining 34-moddasi barcha imzolagan davlatlarni stalkingni jinoiy javobgarlik sifatida belgilashga majbur etadi [7]. Bizningcha, milliy qonunchiligimizga ushbu normaning kiritilishi nafaqat ayollarni, balki voyaga yetmaganlarni ham psixologik tazyiqlardan himoya qiladi.

Shuningdek, onlayn gruning masalasi ham o'ta dolzarbdir. BMT ko'rsatmalari va Kanada Jinoyat kodeksining 172.1(1)-moddasi internet orqali bolaning ishonchini qozonib, keyinchalik jinsiy jinoyat sodir etishga tayyorgarlik ko'rishni mustaqil jinoyat tarkibi sifatida belgilaydi [8]. O'zbekiston Jinoyat kodeksiga bunday normaning kiritilishi preventiv (oldini oluvchi) ahamiyatga ega bo'lib, jinoyat hali jismoniy bosqichga o'tmasdanoq uning oldini olish imkonini beradi.

### **Xulosa**

O'zbekiston Respublikasida voyaga yetmaganlar va ayollarni jinsiy zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi qonunchilik so'nggi yillarda izchil takomillashtirib borilmoqda. Amalga oshirilgan tahlillar va xalqaro tajriba o'rganilishi asosida quyidagi ilmiy va amaliy xulosalarni ilgari suramiz:

**Birinchidan,** Jinoyat kodeksining 118, 119, 128 va 129-moddalarida aybdorning jabrlanuvchi yoshini bilishi shartligi haqidagi talabning bekor qilinganligi — bolalar manfaatlarini himoya qilishning eng samarali huquqiy vositasi bo'ldi. Bu norma huquqni qo'llovchi organlarga jinoyatchining subyektiv vajlariga qaramasdan adolatli jazo tayinlash imkonini beradi.

**Ikkinchidan**, jismoniy daxlsizlik tushunchasi bilan bir qatorda, bolaning “kiber-daxlsizligi” tushunchasini ham qonunchilikda mustahkamlash lozim. PF-33-sonli Farmon talablaridan kelib chiqib, Jinoyat kodeksiga “Kiberzo‘ravonlik” va noqonuniy ta’qib qilish uchun mustaqil moddalar kiritish zarur.

**Uchinchidan**, “Onlayn gruning” — ya’ni bolani jinsiy ekspluatatsiya qilish maqsadida internet orqali uning ishonchiga kirish harakatini ijtimoiy xavfli qilmish sifatida jinoyat tarkibiga kiritish lozim. Bu jinoyatning tugallangan vaqti sifatida bolaga shahvoniy mazmundagi takliflar yuborilgan yoki u bilan uchrashuv tayinlangan paytni belgilash maqsadga muvofiqdir.

**To‘rtinchidan**, voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy jinoyat sodir etgan shaxslarning yagona reestri (pedofillar reestri)ni shakllantirish va ularning ta’lim muassasalarida, bolalar lagerlarida ishlashini umrbod taqiqlash mexanizmini qonun darajasida mustahkamlash lozim.

**Beshinchidan**, Istanbul konvensiyasi tamoyillarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish orqali voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy zo‘ravonlik holatlarida jabrlanuvchini himoya qilishning maxsus “protsessual kafolatlari”ni (masalan, ayblanuvchi bilan yuzlashtirmaslik, videokonferensaloqa orqali so‘roq qilish va h.k.) yanada kengaytirish zarur.

**Oltinchidan**, latentlik darajasini pasaytirish maqsadida, bolalarga nisbatan jinsiy zo‘ravonlik haqida xabar bermaganlik uchun javobgarlikni yanada kuchaytirish, shu bilan birga bunday xabar bergan shaxslarning (masalan, o‘qituvchi yoki shifokorlarning) maxfiyligini va xavfsizligini kafolatlovchi huquqiy mexanizmlarni yaratish lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kun.uz axborot portali. Pedofiliya kamayayotgani yo‘q. Bunga sabab nima? URL: <https://kun.uz/15107103#!>
2. O‘zbekiston Respublikasining 14.11.2024 yildagi O‘RQ-996-son Qonuni “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”, Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 14.11.2024-y., 03/24/996/0921-son.
3. Rustambayev M.X., Niyozova S.S. Oiladagi zo‘ravonlik va tazyiqlarning jinoyat-huquqiy, kriminologik va viktimologik jihatlari. Monografiya. — Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2024. — 323 bet.
4. O‘zbekiston Respublikasining 11.04.2023 yildagi “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-829-son qonuni. Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 12.04.2023-y., 03/23/829/0208-son.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ayollar va bolalar huquqlarining himoyasini kuchaytirish hamda ularga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlarining oldini olish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy-huquqiy choralar to‘g‘risida”gi 03.03.2026-yildagi PF-33-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.03.2026-y.

